
Rishton tumanida 30-iyun - "Yoshlar kuni" munosabati bilan «Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!» shiori ostida yoshlar forumi gala-kontserti bo'lib o'tdi.

Rishton tumanidagi "Istirohat bog'ida" yuragida yurt ishqiy yongan, yuz-ko'zlarida ertangi kunga bo'lgan umid uchqunlari porlagan qalbi qaynoq yoshlar bilan to'ldi.

Tantanani tuman hokimi o'rinbosari Zarifjon Umarov tabrik so'zi bilan ochib, barcha yoshlarni bayram bilan samimiy muborakbod etdi.

U o'z so'zida mamlakatimizda yoshlar masalasi har doim davlat siyosati darajasidagi muhim masala bo'lib kelgani, so'nggi yillarda yosh yigit-qizlarimiz uchun yaratilayotgan keng ko'lamdagi imkoniyat va shart-sharoitlar, ularning o'qib-o'rganishlari, qizg'in faoliyat ko'rsatishlari uchun qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik nafaqat yurtdoshlarimiz, balki dunyo hamjamiyatini ham o'ziga jalb etayotganligi alohida e'tirof etdi.

Shundan so'ng, «Eng yaxshi sardorlar Kengashi» tanlovida Respublika bosqichi g'olibi bo'lgan 20-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari taqdirlandilar. Shuningdek, adabiyot, san'at, sport va boshqa yo'nalishlarda turli yutuqlarni qo'lga kiritgan, shaharning ijtimoiy hayotida faollik ko'rsatib kelayotgan yoshlar vakillariga ham diplom va qimmatbaho sovg'alari ham taqdim etildi.

Bayram tadbiri davomida tuman madaniyat bo'limining taniqli xonandalari ijrosida yangragan dilrabo kuy-qo'shiqlarga tantana ishtirokchilariga dildan xirom ayladilar.

2022-06-25 23:34:25